Published on *Nurobod.uz* (~~http://nurobod.uz~~)

~~Qabul qilingan hujjatlar ko‘p qirrali O‘zbekiston-Singapur munosabatlarining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi~~

24/05/2023 - 16:54



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev va Singapur Respublikasi Prezidenti Halima Yaqub huzurida ikki tomonlama hujjatlarni almashish marosimi bo‘lib o‘tdi.Xususan, tashrif davomida quyidagi hujjatlar imzolandi:

–O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Singapur Respublikasi Hukumati o‘rtasida 2023-2026 yillarga mo‘ljallangan hamkorlik to‘g‘risida memorandum;

– O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Singapur Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida memorandum;

– O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Singapur Respublikasi Adliya vazirligi o‘rtasida 2023-2024 yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi;

– O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi va Singapur Respublikasi Savdo va sanoat vazirligi huzuridagi Singapur turizm boshqarmasi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida memorandum;

– O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi va Singapur turizm agentliklari milliy assotsiatsiyasi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida bitim;

– O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Singapur hamkorlik agentligi o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, “yashil” iqtisodiyot sohasidagi qo‘shma faoliyat to‘g‘risida hamkorlik bitimi;

– O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi va Singapur Respublikasi Biznes federatsiyasi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida memorandum.